

Shavkat Mirziyoev yo'llarni sifatli qurish bo'yicha ko'rsatmalar berdi



Prezident Shavkat Mirziyoev Guliston shahrining Toshkent ko'chasida amalga oshirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlari bilan tanishdi.

Ushbu ko'cha zamonaviy talablar asosida qayta qurilib, qatnovlar o'ttasida xavfsizlik to'siqlari, energiyatejamkor yoritgichlar o'rnatilgan. Ikki yonda yashil hudud barpo etilib, gullar va manzarali daraxtlar ekilgan. Piyodalar va velosipedlar uchun yo'laklar tashkil qilingan.

Prezident qurilish sifati va transportlar harakatiga qulayliklarni oshirish yuzasidan ko'rsatmalar berdi. "Yo'l qurilishiga shuncha pul ajratayapmiz. Lekin yo'llarimizning sifati yo'q, desak adolatdan bo'ladi. Bu sohada qurilish hajmi, yo'l uzunligi ortidan quvmay, avvalo sifatga e'tibor berish kerak. Bir kilometr bo'lsayam, sifatli quringlar.

O'nlab yillar xalqimizga xizmat qilsin, odamlar rozi bo'lisin" dedi Shavkat Mirziyoev.



Davlatimiz rahbari yo'l qurilishi va ekspluatatsiyasida ishlataladigan zamonaviy texnikalarni ham ko'zdan kechirdi.

Manba: president.uz